

uk

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI
O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Ta’lim yo’nalishi:	70112101 – Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari)

Fan/modul kodi ITM 1105	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
		Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	60	90
2.	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanining ahamiyati ilmiy izlanishning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirishdir. Shu bilan birga, fan ijtimoiy madaniy hodisa, fanlarning tasnifi, ijod va ilmiy tadqiqot bilish faoliyati mahsuli, ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari, ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyat, ilmiy maktab – metod va metodologik yondashuvlar, olimning professional va ijtimoiy mas'uliyatini magistrarga o'rgatishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – ilmiy tadqiqot dasturini tuzish va undan nazariya va amaliyot birligiga rioya qilish malakalarini shakllantirishdan iborat. Fan magistrlarda magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlash, uni tayyorlash va talab darajasida rasmiylashtirishga ko'maklashishni ko'zda tutadi. Ilmiy izlanishda umumfalsafiy, umumilmiy hamda maxsus fan metodlarini qo'llash yo'llarini o'rgatadi hamda magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarni to'g'ri anglash imkoniyatini yaratishdir.</p> <p>Fanning vazifasi – ilmiy tadqiqot ishini tayyorlashda ilmiy izlanish, ilmiy dalillarning rolini anglash, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish; ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish va uning yechimini topish yo'llarini izlash texnologiyasini; axborot va axborot texnologiyalaridan foydalanishning zaruriyati; ilmiy ish ma'nosini tushunishning ahamiyati; ilmiy tadqiqot jarayonida olim mas'uliyatining ahamiyatini o'rganish va egallangan bilimlardan amaliyotda foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa</p> <p>Fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida bilim, faoliyat va ijtimoiy institut. Fan tushunchasining keng va tor mahholari. Fan tarixiga oid yondashuvlar: prezentizm va antikvarizm, internalizm va eksternalizm, stsientizm va antistsientizm. Fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Fanning funksiyalari. Fanning mikrokonteksti va makrokonteksti.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Fanlarning tasnifi</p> <p>Fan bilishning maxsus shakli. Fanlar tasnifi: fundamental, nazariy, amaliy, eksperimental, texnika, ijtimoiy gumanitar fanlarning o'zaro aloqasi va farqlari. Fanlar tasnifiga oid qarashlar tarixi. Ilmiylik mezonlarining tasnifi. Fanning dinamik va statik qonuniyatlari. Analitik va sintetik bilim. Fanning</p>			

diffirentsiatsiyasi va integratsiyasi. Fanning obrazi. Fanning ijtimoiy-madaniy mo'ljallari.

3-mavzu. Ijod va ilmiy tadqiqot – bilish faoliyatining mahsuli

Ijod ilmiy faoliyatni maqsadli tashkil etish omili. Ijodning asosiy xossalari. Ilmiy ijodning amal qilish mexanizmlari. Aqlning ijodiy faolligi imkoniyatlari. Ilohiy ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Daholikning tabiati. Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bosqichlari.

4-mavzu. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish jihatlari

Ilmiy tadqiqot namoyon bo'lishining asosiy jihatlari: erkinlik, yozma matn va uning og'zaki matndan farqi. Ilmiy tadqiqotni ilmiy ish sifatida rasmiylashtirish metodikasi. Ilmiy tadqiqot natijalarini ifodalovchi tezis, maqola, monografiyalarni tayyorlashda bilimning ahamiyati va ularning taqdimoti. Xalqaro jurnallarda maqolalar nashr qilishning zarurati va ahamiyati. Olimlarning ilmiy ishlariga iqtibos berishning ilmiy faoliyatdagi o'rni. Plagiat (ko'chirmachilik) olim shahriga isnod sifatida. xalqaro ilmiy bazalarda makolalarni joylashtirishning zarurati. Kutubxonalarda ishlash amaliyoti: alfavit, sistemali va elektron kataloglar.

5-mavzu. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari

Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari: individual ilmiy tadqiqot: (bakalavr bitiruv ishi, magistrlik va doktorlik dissertatsiyasi, referat va maqolalar, kurs ishi, monografiya). Dissertatsiyalar bilan ishlash amaliyoti. Avtoreferat matnini uchinchi shaxs nomidan tayyorlashning zarurati.

Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotning o'ziga xos xususiyati; buyurtma asosidagi hamkorlik faoliyati, fundamental, innovatsion va amaliy tadqiqot ishlari hamkorlikdagi faoliyat mahsuli. Hamkorlikdagi maqola va monografiyalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Texnikaviy tadqiqot va uning tiplari. Badiiy ijod bilan bog'liq ilmiy tadqiqot. Badiiy ijod ijtimoiy ongning maxsus shakli.

Pedagogik faoliyat va ilmiy tadqiqotning uyg'unligini tahminlashning ahamiyati. Improvizatsiya pedagogik tadqiqotning ko'rinishi. Pedagogik ijodning xususiy ko'rinishi. Zamonaviy ilmiy tadqiqot kontseptsiyalari.

6-mavzu. Ilmiy tadqiqot tiplari

Ilmiy tadqiqot tiplarining tasnifi: fundamental tadqiqotlar va ularda voqelik hodisalari va qonunlari haqida yangi bilim olish imkoniyati. Amaliy tadqiqotlar va ularni moliyalashtirish imkoniyati. Tadqiqotchilik loyiha konstruktorlik ishlanmalari: (mutlaqo maxfiy tadqiqotlar). Innovatsion tadqiqotlar. Yoshlarning fundamental, amaliy va innovatsion loyihalari. Xalqaro jamg'armalarning ilmiy loyihalari va ularda ishtirok etishning ahamiyati. Nodavlat notijorat tashkilotlarning ijtimoiy loyihalari. Fundamental, amaliy, innovatsion, tadqiqot ishlanmalarining o'zaro aloqasi va farqi. Fan va ishlab chiqarishning aloqadorligi. Ilmiy bilishning o'sish qonuniyatlarini. Fanning o'sish nuqtalari. Ilmiy tadqiqotda vorisiylik va novatorlik.

7-mavzu. Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyat

Muammo tushunchasi va uning mohiyati. Muammo va metod uyg'unligi. Muammo va masala. Katta, muhim, ikkinchi darajali muammolar. Muammoning shakllari. Xususiy muammolar. Mavzuni tanlash muammoning to'g'ri yechimi ilmiy faoliyatning amaliy natijasining kafolati. Ilmiy muammolarning namoyon bo'lish usullari: predmetga doir va protseduraga doir muammolar. Dissertatsiyani tayyorlashda bilimning ahamiyati. (magistrlik dissertatsiyasi misolida barcha muammo turlari tahlil qilinishi shart). Ilmiy muammolarning boshqa muammolardan farqlovchi asosiy belgilar. Muammoli vaziyat va uning ahamiyati. Muammo va ilmiy tadqiqot uyg'unligi. Muammoni qo'yish va uning yechimini topishning asosiy bosqichlari.

8-mavzu. Dalil – ilmiy muammoni yechish omili

Talqin qilish dalilning muhim unsuri. Dalilning moddiy-texnik va metodik jihati. Empirik dalilning xossalari: kuzatish va eksperimentlar, bilish amallari. Ilmiy dalilning tavsifi va xossalari. Ilmiy dalilning strukturasi. Ilmiy dalillarni aniqlash usullari. Dalillarning ilmiy bilishdagi ahamiyati va imtiyozli dalillar. Ilmiy bilimning rivojlanishida fan dalillarini umumlashtirishning ahamiyati. (Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy dalillar yig'ish misolida asoslanadi).

9-mavzu. Ilmiy maktab – metod va metodologik yondashuvlar

Ilmiy maktab shakllanishining tarixi, umumiy belgilari va asosiy bosqichlari. Ilmiy maktablarning tiplari. Ilmiy maktablarning shakllari, paradigmal va lokal darajalari. Ilmiy maktablarning klassifikatsiyasi. Innovatsion ilmiy maktablar.

Metod, metodologiya, metodika tushunchalarining o'zaro aloqasi va farqi. Metodlarning tasnifi: fan metodlari; fanlararo tadqiqot metodlari; xususiy ilmiy metodlar; empirik tadqiqot metodlari, nazariy tadqiqot metodlari; tadqiqotning umumiy mantiqiy metodlari; falsafa metodlari; ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari. Hozirgi zamon metodologiyasi. Evristika - yangi metodologik tamoyil.

Metodologik tamoyillarning klassifikatsiyasi. Tabiiy obyektlarning xossalari: subg'ektiv yaxlit xossalar, yaxlit xossalar, metayaxlit xossalar va Ad-hoc yaxlit xossalar.

10-mavzu. Intellektual mulk huquqi: innovatsiya va novatsiyalar, kashfiyot va ixtiro, intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibliigi

Innovatsiya tushunchasining tahlili va turlari. Pedagogik innovatsiyalar. Innovatsion maktab mezonlari. Innovatsiyalarning tasnifi. Innovatsiya yangi ilmiy texnik yutuqlardan samarali foydalanish vositasi.

Novatsiya yangi ilmiy g'oyadagi «eskilik» elementi. Ilmiy faoliyatda innovatsiya va novatsiyalarning o'rni.

“Kashfiyot”, “ixtiro” tushunchalarining innovatsion xarakteri. Ilmiy kashfiyotlarning tasnifi. Ixtiro - kashfiyot va innovatsiya o'rtasidagi o'ziga xos “oralik” holat. Kashfiyot va ixtirolar ijodiy faoliyat natijasi. Insoniyat tarixidagi

eng buyuk kashfiyotlar va ixtirolar tasnifi.

Intellektual mulk tushunchasining tavsifi. Mualliflik huquqining yo'nalishlari. Patent - olim ilmiy kashfiyoti yoki ixtirosining tan olinganligi haqidagi guvohnoma.

11-mavzu. Tushunish va tushuntirish ilmiy faoliyatning mezozi

Ilmiy faoliyatni tashkil etishda mavzuning mohiyatini tushunishning ahamiyati. Tushunishning turlari, tiplari va darajalari. Tushunishning ikki muhim jihati: tsikllilik va germenevtik doira tamoyili. Ilmiy tadqiqotda matn mahnosini tushunish va undan foydalanishning ahamiyati. Yozma va og'zaki matn mahnosini tushunish ilmiy tadqiqotning muhim sharti. Matnning yashirin mahnosini tushunishning ilmiy tadqiqot uchun zarurati.

Simvol tushunchasining mohiyati. Simvollarni to'g'ri belgilash va ularda mahnoni ifodalashning zarurati. Simvolning shakllari. Semiotika - belgili tizimlarni o'rganuvchi fan. Ilmiy tadqiqotda semiotik belgilardan foydalanish malakalarini shakllantirishning ahamiyati. Dialog og'zaki matnni tushunish vositasi. Dialogning turlari. Ilmiy mahruzaning mahnosini tushunishda dialogning o'rni. Til tushunish vositasi. Til amaliy ong sifatida obhektiv bilim (obhekt-til) va subhektiv bilim (subhekt-til)ni yaxlit bir butunga birlashtiruvchi omil. Fan tilining bir biridan farqi va ularni tushunishda oqilona yondashuv. Ilmiy tushuntirishning tavsiflash bilan o'zaro aloqasi. Ilmiy tushuntirishning elementlari. Tushuntirish va tushunishning o'zaro nisbati. Tushunish mahnaviy madaniyatning moddiylashtirilgan ifodasi.

12 - mavzu. Ilmiy tadqiqotga axborot va axborot texnologiyalarining tahsiri

Axborot, bilim, mahlumot tushunchalarining tahlili. Bilimning informativligi mummosi. Ijtimoiy axborot va ilmiy axborotning o'ziga xos xususiyatlari. Informatika va infomatizatsiya. Ilmiy bilimning informativligi. Informatika ilmiy bilimning o'ziga xos sohasi. Axborot texnikasi va axborot texnologiyasi. Texnologiya va texnikani o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot faoliyatiga ijobiy tahsiri. Elektron kutubxona va undan ilmiy tadqiqotni tashkil etishda foydalanish amaliyoti. Axborotlashgan jamiyat kontseptsiyasi. Axborotlashgan jamiyatda mehnat mazmunining o'zgarishi. Elektron hukumat va virtual qabulxona texnologiyalarining amal qilish xususiyatlari. Axborot inqilobi. Nanotexnologiyalar. Biometrik identifikatsiya qilish texnologiyasi. Virtual borliq texnologiyalaridan ilmiy faoliyatda foydalanishning ahamiyati. Virtual reallik va virtual zarralar fan taraqqiyotining mahsuli. Raqamlashtirish, raqamli iqtisod.

13 - mavzu. Ratsionallik va ilmiy tadqiqot mutanosibligi

Ilmiy ratsionallikning shakllanish tarixi. Ratsionallikning mazmuni. Ratsionallik modellari: induktivistik, deduktivistik, evolyutsionistik, to'rsimon, realistik, paradigmalar, fanni tematik tahlil qilish va ilmiy tadqiqotga aosslanuvchi modellar. Ilmiy ratsionallikning klassik va noklassik qiyofasi. Yangi

ratsionallikning cheksizligi. Ochiq va yopiq ratsionallik. Ong strukturasida ratsionallik. Ong tabiatini tushuntirishga oid yondashuvlar. Ratsionallik va ilmiy bilimning ijtimoiy - nazariy asoslari. Ilmiy bilim qoida va xulosalarining ratsionalligi. Ilmiy tadqiqot faoliyatida bilimning ratsionallashuvi

Ilmiy tadqiqot faoliyatida ratsionallik va irratsionallik. Inson bilimi hissiy va ratsional faoliyat birligi mahsuli. Ratsional faoliyat fikr shakllari bilan aniq belgilangan andozaga muvofiq ish ko'rish shakli. Hayotning ratsionallashuvida bilimning roli. Simvollar interaksionizm kontsepsiyasi. Yo'l tanlashning ratsionalligi. Determinizm – muxandislik - texnikaviy yondashuv doirasida qo'llaniladigan nazariy mavhumlashtirishning pirovard natijasi.

14 - mavzu. Olimning professionallashuvi va ijtimoiy mashuliyati

Ilmiy tadqiqotda erkinlik va ijtimoiy nazorat. Ilmiy hamjamiyatda fanning erkinligi tamoyili. Mavzuni tanlash erkinligi va uning ijtimoiy nazorati. Ilmiy faoliyatni ijtimoiy nazorat qilish vositalari: ekspertlar kengashi, kollegial tashkilotlar, maslahat kengashlari. (Ilmiy loyihalar mazmuniga baho beruvchi ekspert kengashlari). Oliy attestatsiya komissiyasi olim ilmiy faoliyatiga baho beruvchi tashkilot.

Neytralizm va ijtimoiy mashuliyat. Fandagi neytralizm - din, axloq, siyosatga aralashmaslikning ifodasi. Neytralizmning ikki asosiy tendentsiyasi. Ijtimoiy mashuliyat tushunchasi va uning zaruriyati. Olimlar jamoasining tasnifi: super intellektual elita, intellektual elita, ilm ahli tushunchalarini bir biridan farqlovchi asosiy belgilar. O'zbekistonning intellektual elitasi va ularga ishlash uchun yaratilgan sharoitlar. O'zbekistonda ilmiy laboratoriyalarni rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati. Elitar tahlim va elitar pedagogika. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini tashkil etish, fikr almashish vositalarining tasnifi: kongress, forum, simpozium, konferentsiya, seminarlarning bir biridan farqli jihatlari. Hozirgi zamon olimining portreti. Konsensusning shakllari va darajalari. Fanda xalqaro jamoatchilik bilan ishlashning ahamiyati. Mahorat darslarini tashkil etishning afzalliklari. (Barcha sohadagi ilmiy hamkorlikning tahlili).

15-mavzu. Ilmiy tadqiqotda ijtimoiy etika

Ilmiy faoliyatdagi axloqiylik mezonlari. Ilmiy tadqiqot natijalarining umumiyligi va ochiqligi. Yuqori tankidiylik va ijodiy tankidiylik okibatlari. Mualliflik huquqi va uning buzilishi oqibatlarini.. Fan va ilmiy faoliyatda korruptsiya. Fanda kadrlar korruptsiyasi va uning oqibatlarini. Fanda g'oyaviy korruptsiyaning amal qilish mexanizmlari. Dissertatsiyalarning himoyasini tashkil etishdagi lobbizm va favoritizm. Plagiat va korruptsiyaning o'zaro aloqadorligi. Hozirgi davrda fan va tahlim sohasidagi korruptsiyaga qarshi kurashning usul va vositalari.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa
2. Fanlarning tasnifi
3. Ijod va ilmiy tadqiqot – bilish faoliyatining mahsuli

4. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish jihatlari
5. Ilmiy tadqiqotning namoyon bo'lish shakllari
6. Ilmiy tadqiqot tiplari
7. Ilmiy tadqiqotda muammo va muammoli vaziyat
8. Dalil – ilmiy muammoni yechish omili
9. Ilmiy maktab – metod va metodologik yondashuvlar.
10. Intellektual mulk huquqi: innovatsiya va novatsiyalar, kashfiyot va ixtiro, intellektual mulk va patent tushunchalarining mutanosibliigi
11. Tushunish va tushuntirish ilmiy faoliyatning mezonlari
12. Ilmiy tadqiqotga axborot va axborot texnologiyalarining tahsiri
13. Ratsionallik va ilmiy tadqiqot mutanosibliigi
14. Olimning professionallashuvi va ijtimoiy mashuliyati.
15. Ilmiy tadqiqotda ijtimoiy etika

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ilmiy tadqiqotni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalarni to'liq o'rganish.
2. Mavzuni tanlash va tadqiqot maqsadini aniqlash.
3. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: sistemali katalog, alfavitli kartoteka, elektron kitoblardan foydalanish bilan ishlash malakalari.
3. Ilmiy muammoni hal etish uchun dalillar to'plash: empirik dalillarni ilmiy dalillardan farqlash va ularni baholashga oid muammolar kesimida fayllarga joylashtirish.
4. Dissertatsiya matnini protseduraga baholashga oid muammoning usuli vositasida tayyorlash.
5. Dissertatsiyaning kirish qismi matni tayyorlanganida magistratura bo'yicha nizom talablariga rioya qilinishi shart:
 - a) mavzu dolzarbligining yetarli asoslanishi unda fikrning ketma-ketligining tahminlanishi, iqtiboslar mavzuga dahldor bo'lishi va eng yangi manbaga tayanilishi maqsadga muvofiq;
 - b) o'rganilganlik darajasi - davriylik nuqtai-nazaridan sharq va g'arb adabiyotlarining qiyosiy tahlili va ularga munosabatni o'zida ifodalashi lozim;
 - v) ilmiy tadqiqot ishining mavzusi dissertatsiya tayyorlanayotgan tahlil muassasasi va kafedraning mavzusi doirasida bo'lishi lozim;
 - g) dissertatsiyaning tayyorlik holati bo'yicha har oyda kafedra majlisida hisobot berilishi lozim.

6. Taqdimotni tayyorlashda eng muhim materiallarni qo'llashda metodologik muammo mezonlariga rioya qilish.
 7. Dissertatsiyani tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalari: prezentatsiya-taqdimot tayyorlash, dasturlarda ishlash, internet tarmog'ida materiallar yig'ish.
 8. O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan taraqqiyoti
 9. O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etilishi
 10. Ilmiy bilishning metodologik asoslari
 11. Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarini tanlash va ilmiy-tadqiqot ishlari bosqichlari
 12. Ilmiy axborotlarni qidirish, to'plash va qayta ishlash 6. Nazariy tadqiqotlar
 13. Eksperimental tadqiqotlar
 14. Eksperimental tadqiqot natijalarini qayta ishlash
 15. Ilmiy ish natijalarini rasmiylashtirish va axborotlarni uzatish
 16. Ilmiy-tadqiqotlarni qo'llanilishi va samaradorligi
 17. Ilmiy jamoada ishni tashkil etish
 18. Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash
 19. Ilmiy bilishning nazariy darajasi va uning xususiyatlari.
 20. Ilmiy tadqiqot bir butun tizim sifatida.
 21. Ilmiy bilishning empirik va nazariy darajalari
 22. Analiz va sintez ilmiy bilishning muhim metodlari sifatida.
 23. Fanda prognoz va prognoz qilish tushunchalari.
 24. Nazariya tadqiqotiy izlanish jarayoni va natijasi sifatida.
 25. Muammo - gipoteza - nazariya.
 26. Axborot almashish jarayonining shakllanishi, hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot jarayoni va natijasi sifatida.
 27. O'zbekistonning hozirgi davr rivojida ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi ahamiyatining oshib borishi.
 28. Inson - axborot-texnika vositalari dunyosining tarkibida.
 29. Fan taraqqiyotining bosqichlari.
 30. XXI asrda ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati.
 31. Fan va amaliyot orasidagi ziddiyatlar.
 32. Bojxona sohasida ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi.
 33. Bojxona ishi sohasida tadqiq qilinishi zarur bo'lgan muammolar.
 34. Ilmiy tadqiqot o'tkazishda elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish.
 35. Ilmiy tadqiqotning axborot ta'minoti.
 36. Bojxona sohasiga oid ilmiy adabiyotlar va manbalar bilan ishlash.
 37. Ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullari.
 38. Tadqiqot uchun zarur ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash metodlari.
 39. Ilmiy ishning ilmiy apparati.
 40. Ilmiy adabiyotlarning turlari va xususiyatlari.
 41. Tadqiqot natijalarini e'lon qilish usullari.
 42. Eksperimental tadqiqot o'tkazish va natijalarni rasmiylashtirish.
 43. Ilmiy ishning ilovalar qismi.
- Dissertatsiya mavzusiga oid sotsiologik so'rovnomalarni, laboratoriya ishlarini olib borish va ularning natijalaridan tegishli joyda foydalanish tavsiya etiladi.

3.	<p align="center">VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>- bilimning konstruktiv xarakteri, ilmiy ishning amaliy ahamiyatini anglash, ilmiy metodik adabiyotlarni tahlil etish va ularga havola berish usullari, mavzuni yoritish uchun matndan daliliy misollar tanlash, ularning miqdorini belgilash, qo'lyozmani tahrir etish, ilmiy ishni mantiqiy izchil, ravon va savodli yozish, bilimdan asosiy metodologik vosita sifatida foydalanish, ilmiy tadqiqotning amal qilish mexanizmlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;</p> <p>- ilmiy tadqiqot jarayonida muammoni to'g'ri qo'yish va uning yechimini topish texnologiyasi, rejani tuzish, tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni tahriflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotning metodologik tamoyillari, ilmiy loyihalarni tuzish, ilmiy izlanishlarning yo'nalishlari haqida bilimga ega bo'lishi va ulardan foydalana olishi;</p> <p>- tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni tahriflash va olingan natijalarni bholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, axborot va axborot texnologiyalardan foydalanish, ilmiy ish mahosini tushunishning ahamiyati, ilmiy tadqiqot jarayonida olim mashuliyati va ilmiy faoliyat mahsulining amaliy ahamiyatini anglash, tayyorlangan ilmiy ishning yuqori saviyadagi taqdimotini o'tkazish bo'yicha ko'nikmalar ega bo'lishi lozim.</p>
4.	<p align="center">VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hiyoa qilish uchun loyihalar
5.	<p align="center">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p align="center">X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Davronov Z. D. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. – Toshkent: TMI, 2004. Miraxmedov M., Toxirov M. Ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi – Toshkent: Toshkent Temir yo'llari instituti nashriyoti, 2012. - 456 b. 2. Novikov A. Metodologiya nauchnogo issledovaniya. - M., 2012. 3. SHERMUXAMEDOVA N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. –Toshkent: Noshir, 2014. - 480 b. 4. SHERMUXAMEDOVA N.A. Semiotika. –Toshkent: Noshir, 2014. - 160 b. 5. SHERMUXAMEDOVA N. A. Fan falsafasi – Toshkent: Noshir – 2016. 460 b.

	<p>6. Shermuxamedova N. A. Falsafa va fan metodologiyasi – Toshkent: Axborot texnologiyalari, 2014. - 480 b.</p> <p style="text-align: center;">XI. Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <p>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.</p> <p>2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.</p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent, 2021. - 458 b.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb sayti.</p> <p>http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p>www.cspi.uz – Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti</p> <p>www.natlib.uz - (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> <p>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portali</p>
7.	<p>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ ” dagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma’sul: G.G’. G’affarova - CHDPU, “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası professori, falsafa fanlari doktori (DSc)</p>
9.	<p>Taqrizchilar: N.A. Nazarov - CHDPU, “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası professori, falsafa fanlari doktori (DSc) I.B. Siddiqov – Farg’ona davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc)</p>

